

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qo'l yozma huquqida
UDK 595. 132. 631. 46

XUSHMURODOVA GULMIRA KELDIYAROVNA

**“Navoiyazot” hissadorlik jamiyati atrofi tuproq nematodalari ekologo-trofik
guruhlarining taksonomik o`rni va bioekologik tahlili**

5A 40401 – Biologiya mutaxassisligi

MAGISTR

darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: dots. G.D.Shamsidinova

Navoiy -2008

MUNDARIJA:

I. KIRISH.....

- 1.1. Mavzuning dolzarbligi, dissertatsiyaning maqsad va vazifalari.....
- 1.2. Mavzuning amaliy ahamiyati, ilmiy va muammolik tomonlari.....
- 1.3. Tadqiqot obyektlari, dissertatsiyaning tuzilishi.....

II. BOB.....

- 2.1. Navoiy viloyati hududining geografik o`rni va ekologik holati.....
- 2.2. “Navoiyazot” hissadorlik jamiyatining umumiy tasnifi.....
- 2.3. Ishning bajarilish mazmuni va metodikasi.....
- 2.4. “Navoiyazot” hissadorlik jamiyati atrofi tuproq nematodalarining vertical va gorizontal tarqalishi.....

III. BOB.....

- 3.1. “Navoiyazot” hissadorlik jamiyati atrofidan topilgan tuproq nematodalarining tur tarkibi bo`yicha taksonomik o`rni.....
- 3.2. “Navoiyazot” hissadorlik jamiyati atrofidan topilgan tuproq nematodalarining tur tarkibi bo`yicha ekologo – trofik guruhlari tahlili.....

IV. XULOSA.....

- 4.1. Tuproq nematodalarini o`rganish yuzasidan chiqarilgan xulosalar.....
- 4.2. Ishlab chiqarish va amaliyotga takliflar.....

V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

Navoiy viloyati deganda, avvalo ko`z oldimizga buyuk shoirimiz Alisher Navoiy nomini sharaflab kelayotgan, ko`ngli ochiq, zahmatkash, saxovatli insonlar, bunyodkorlik bilan band bo`lgan, ko`p millatli xalqni tasavvur qilaman.

Navoiy viloyati deganda, bu go`zal vohaning betakror tabiati, cheksiz cho`l va dalalar, bepoyon yaylovlar bilan birga, ulkan sanoat mintaqasi ko`z o`ngimizda namoyon bo`ladi.

Islom Karimov.

I. KIRISH.

1.1. MAVZUNING DOLZARBLIGI, DISSERTATSIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI.

Mavzuning dolzarbligi: Tuproq va o`simlik nematodalarining ko`p yillik o`rganilish tarixiga qaramay, sanoat chiqindilari bilan ifloslangan tuproq nematodalari kam o`rganilgan. «Navoiyazot» hissadorlik jamiyati chiqarayotgan chiqindilar miqdori va tarkibiga qarab hududdagi nematodalarning mavjudlik holati, tur tarkibi, taksonomik o`rni, oziqlanish zanjiriga ko`ra ekologo-trofik guruhlari hamda mavsumiy dinamikasi o`rganilishi lozim.

Dissertatsiyaning maqsad va vazifalari: Tashqi muhitning sofliги tirik jonzotlarning salomatligi uchun eng muhim omil ekanligi, ekologik muammolar allaqachon umumbashariy muammoga aylanganligini inobatga olib, sanoat korxonalari chiqarayotgan chiqindilarni tuproq organik dunyosiga ta'sirini o'rganishni va quyidagi vazifalarni bajarishni maqsad qilib qo'ydik.

- «Navoiyazot» hissadorlik jamiyati chiqarayotgan chiqindilar miqdori va tarkibini o'rganish;

- Korxona atrofi hududidagi nematodalarni J.B.Goodey (1963), E.Kiryanova, E.Krall (1969-1971), M.H.Siddiqi (1971-1968), I. Andrassy (1976) va boshqa olimlarning sistematikasi bo'yicha taksonomik o'rnini aniqlash;

- Oziqlanish zanjiriga ko'ra ekologo-trofik guruhlariga ajratish;

- Nematodalar sonining mavsumiy dinamikasini o'rganish.

1.2. MAVZUNING AMALIY AHAMIYATI, ILMIY VA MUAMMOLIK TOMONLARI

Mavzuning amaliy ahamiyati: Sanoat chiqindilari ta'sirida tuproq nematodalari tur tarkibining sifat va miqdor jihatdan o'zgarishlarini o'rganishning amaliy ahamiyati shundaki, biz mazkur jarayon orqali tashqi muhitdagi ekologik holat, tuproqdagi tabiiy o'sish va rivojlanish jarayoni, chiqindilarning tabiat jonzotlariga ta'sir doirasini o'rganish hamda mazkur chiqindilar ta'sirida kelib chiqadigan turli kasalliklardan insonlar organizmini himoya qilishdir.

Mavzuning ilmiy va muammolik tomonlari: Mazkur mavzuga oid ma'lumotlarning to'planishi va tahlil qilinishi ekologiya va inson salomatligi to'g'risidagi bilimlarning boyitilishiga olib keladi. «Navoiyazot» hissadorlik jamiyati chiqindilarining tarkibi, ta'sir qilish holatlari o'rganilib, ishlab chiqarishda chiqindilarning kamaytirilishiga harakat qilinadi, chiqindilar chiqariladigan filtrlar qayta ta'mirlanadi, chiqindilar tashlanadigan axlatxonalar doimiy nazoratda ushlanadi.

«Navoiyazot» hissadorlik jamiyati chiqindilarining tirik organizmlarga ta'siri birdaniga yuzaga chiqmay, ma'lum vaqt mobaynida o'zining o'nglab bo'lmas asoratlarini namoyon qiladi, hujayra va to'qimalarda kansirogen moddalar to'planib, o'sma va saraton kabi xavfli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Sanoat va maishiy chiqindilarga qarshi to'g'ridan-to'g'ri kurashish barchaning insoniy vazifasidir.

«Navoiyazot» hissadorlik jamiyati chiqindilari boshqa maishiy chiqindilar bilan aralashib ketayotganligi uchun uning ta'sir darajasini to'g'ri aniqlab, unga qarshi kurashishga imkoniyat mavjud emas.

1.3. TADQIQOT OBYEKTлари, DISSERTATSIYANING TUZILISHI

Tadqiqot obyektlari: Magistrlik dissertatsiyasini bajarish uchun tadqiqot obyekti sifatida Navoiy shahridan 10 km uzoqlikda joylashgan «Navoiyazot» hissadorlik jamiyati chiqarayotgan mahsulotlar bilan birgalikda atmosfera va tuproqqa tashlanayotgan zararli chiqindi moddalarni tuproq nematodalariga ta'siri

holatini o`rganish asos qilib olindi. Chiqindilarning miqdori va tarkibiga qarab nematodalarining tur va son jihatdan o`zgarishlari qayd qilindi.

Dissertatsiyaning tuzilishi: Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, dissertatsiyaning maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati, ilmiy va muammolik tomonlari, tadqiqot obyektlari, dissertatsiyaning tuzilishi to`g`risidagi ma`lumotlar keltirilgan.

II. bobda Navoiy viloyati hududining geografik o`rni va ekologik holati, “Navoiyazot” hissadorlik jamiyatining umumiy tasnifi, ishning bajarilish mazmuni va metodikasi, “Navoiyazot” hissadorlik jamiyati atrofi tuproq nematodalarining vertikal va gorizontal tarqalish holatlari yoritib berilgan.

III. bobda “Navoiyazot” hissadorlik jamiyati atrofidan topilgan tuproq nematodalarining tur tarkibi bo`yicha taksonomik o`rni, oziqlanish zanjiriga ko`ra ekologo – trofik guruhlar tahlili keltirilgan.

Xulosa qismida Tuproq nematodalarini o`rganish yuzasidan chiqarilgan xulosalar, ishlab chiqarish va amaliyotga takliflar yoritib berilgan.

Bundan tashqari dissertatsiyada foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati keltirilgan

II. BOB.

2.1. NAVOIY VILOYATI HUDUDINING GEOGRAFIK O`RNI VA EKOLOGIK HOLATI.

Navoiy viloyati mamlakatimizning xududiy jihatdan eng yirik mintaqalaridan biri va bu jihatdan Qoraqalpog'iston Respublikasidan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Uning territoriyasi 111 ming kv km ga teng. Viloyat O'zbekiston hududining 30 foizidan ortig'rog'ini egallagan bo'lsada, suv ta'minotining g'oyatda kamligi tufayli, o'ziga tegishli yer maydonining atigi 1,3 foizini sug'oradi va respublika qishloq xo'jalik yalpi mahsulotlarining 3,2 foizini ishlab chiqaradi.

Viloyat respublika yaylovlarining deyarli 42 foiz maydonini egallagan va respublika podasi tuyoq sonining 17 foiz qo'y va echkilari ham 3,8 foiz yirik shoxli mollarini o'tlantiradi va chorvachilik yalpi mahsuloti respublika hajmining 4,6 foizini yetishtiradi. Viloyat yaylovlarining umumiy maydoni 10 million gektarga yaqin bo'lib, bu yerlarda qorako'lchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning 1 million bosh mollari boqiladi.

Navoiy viloyatini suv bilan asosan Zarafshon daryosi ta'minlaydi. Uning uzunligi 740 km ga teng bo'lib, daryoning ko'p yillik o'rtacha suv oqimi 5,3 kub km ni tashkil qiladi. U asosan Tojikiston tog'larida shakllanadi. O'zbekiston xududida unga faqat qariyb 0,2 kub km suv qo'shiladi. Suv kam bo'lgan qurg'oqchilik yillarida uning suvi 4,3 kub km gacha kamayadi. Hozirgi sharoitda Tojikiston o'z ehtiyojlari uchun Zarafshon daryosi suvining 0,3 kub km idan foydalanadi, bu Zarafshon daryosi suv oqimining 8 foizidan kamrog'ini tashkil

etadi. O'zbekiston hududiga kirib kelayotgan Zarafshon daryosi suvi umumiy hajmining 0,3 kub km i Jizzax viloyatiga, 0,4 kub km i Qashqadaryo viloyatiga beriladi va 0,8 kub km i dan Navoiy GRES ida belgilangan maqsadda foydalaniladi.

Zarafshon daryosining suvi bilan Samarqand va Navoiy viloyatlarining 650 ming gektardagi ekinlari sug'oriladi. Zarafshon daryosining suvi qishloq xo'jalik ekinlarining suvga bo'lgan talab normasini 65-72 foizga qondiradi, xolos. Bu respublika suv ta'minotidagi eng kam miqdordir. Shu tufayli Navoiy viloyati Qiziltepa tumani qishloq xo'jalik ekinlari Amudaryo "Amu-Buxoro kanali" orqali suv bilan ta'minlanadi.

Viloyatning ba'zi bir tumanlari, jumladan, Nurota tumani deyarli buloq suvidan ichadi va sug'oriladigan yerlarini shu yerdan va qisman Aydarko'ldan sug'oradi, Navoiy viloyatining Xatirchi, Navbahor, Qiziltepa va Karmana tumanlari sug'orma dehqonchilik mintaqasi hisoblanadi. Bu tumanlar asosan qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Tomdi, Konimex, Nurota va Uchquduq tumanlari cho'l zonalaridan tashkil topgan, tabiiyki, bu tumanlarda chorvachilik yetakchi soha. Ayni paytda Navoiy viloyatining sug'oriladigan yer resurslari 91564 gektarni tashkil etadi. Demak, Navoiy viloyati agrosanoat kompleksini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy muammosi suv resurslari, ularning hajmi chegaralanganligi va sifat ko'rsatgichlarining pastligidir. Bu muammo faqat yerlarni sug'orishning ilmiy asoslangan ilg'or texnologiyasi, jumladan, tomchilab yoki purkab sug'orish tizimiga o'tish yoki Sibir daryolarini Markaziy Osiyoga burish bilan hal etilishi mumkin.

Navoiy viloyatining o'ziga xosligi respublikada aholi zichligining eng kamligi va viloyat aholisining 40 foizdan ko'prog'i shaharlarda va shahar tipidagi qo'rg'onlarda yashashidir. Binobarin, viloyat yetarli darajada sanoatlashgan mintqa hisoblanadi. Navoiy viloyati O'zbekiston Respublikasining yirik sanoat markazlaridan biri bo'lib, viloyatning Navoiy, Zarafshon va Uchquduq shaharlarda Markaziy Osiyoda eng yirik sanoat korxonalari barpo etilgan. Jumladan, viloyat markazi Navoiy shahrida kon-metallurgiya kombinati, "Navoiyazot" ishlab chiqarish birlashmasi, "Elektrokimyo zavod" hissadorlik jamiyati, Remont-mexanika zavodi, "Qizilqumsement" hissadorlik jamiyati va GRES (Navoiy elektr tarmoqlari korxonasi) joylashgan. Chunki viloyatda sanoat, transport, qurilish va xalq xo'jaligining boshqa sohalarini rivojlantirish uchun etarli miqdorda mineral xom ashyo resurslari va ishchi kuchi mavjud. Masalan, Markaziy Qizilqumda juda ko'p noyob ruda konlari mavjudligi aniqlangan. Bu rudalar tarkibida Mendeleev davriy sistemasidagi deyarli barcha elementlarni uchratish mumkin. 1958 yilda Uchquduqda uran koni bazasi qurilib ishga tushirilgan. Navoiy kon-metallurgiya kombinati hozirgi vaqtda Markaziy Qizilqumda topilgan ruda konlaridan oltin, kumush, uran, volfram, qurilishi materiallari va fosforitlar ishlab chiqarish bo'yicha faoliyat ko'rsatmoqda. Navoiy kon-metallurgiya kombinati o'zining ishlab chiqarish faoliyatida Markaziy Qizilqumdagi mineral resurslarni o'zlashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan dasturga tayanadi.

Dasturda oltin qazib olish sanoatini rivojlantirish, trikotaj, mo'yna, zargarlik buyumlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, marmar va kvars qumlarini qayta

ishlash, shuningdek, mineral xomashyo bazasini mustahkamlash uchun geologik qidirish ishlarini jadallashtirish ko'zda tutilgan.

Respublikada yirik sanoat korxonalaridan Navoiy kon-metallurgiya kombinatini qo'llab-quvvatlash maqsadida 1992 yilda Vazirlar Mahkamasining "1992-1995 yillarda Zarafshon va uchquduq mintaqasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish NKMK korxonalarining ishlarini barqarorlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan aniq tadbirlar belgilandi. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha o'tgan davrda uran, oltin, kumush hamda turli qimmatbaho nodir metallar ishlab chiqarish kuchlarining normal ishlashini ta'minlashga zamin yaratildi. Qizilqum mintaqasidagi barcha oltin konlarining o'ziga xos muhim xususiyati shundan iboratki, ruda tarkibida oltin miqdori ko'p bo'lib, u ochiq usulda qazib olinadi.

Muruntov koni dunyodagi gigant konlar jumlasiga kiradi. U Evrosiyo qit'asidagi ruda tarkibida oltin miqdori yuqori darajada bo'lgan eng yirik kondir. Muruntov konining topilishi xalqaro geologiya jamoatchiligi tomonidan yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida oltin sohasida qilingan eng katta kashfiyot deb e'tirof etildi.

Muruntov koni juda katta manba bo'lib, undan har yili millionlab kub metr kon tuprog'i qazib olinadi. Undan dunyodagi eng sifatli oltin qazib olinadi. Bu holning o'ziyoq dunyoning oltin qazib oluvchi sanoati uchun o'ta noyob namunadir. 1994 yil Londonda "O'zbekiston mahsuloti" belgisi bo'lgan Muruntov oltiniga "eng mukammal oltin qo'ymasi" (99,99) maqomi berildi. O'zbekiston oltin zahirasi bo'yicha dunyoda to'rtinchi o'rinda va uning qazib olinishi bo'yicha 10-

o'rinda turadi. Hozirgi vaqtda Navoiy kon-metallurgiya kombinatida 50 mingdan ziyod ishchi, xizmatchi va muhandis kadrlar xizmat ko'rsatmoqda.

1995 yilda kon-metallurgiya kombinatlarini malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash maqsadida Markaziy Osiyoda yagona Navoiy konchilik instituti tashkil etildi.

Ko'p yillar mobaynida foydalanish natijasida Muruntov konining chetida katta hajmda minerallashgan uyumlar ajratilgan va to'plab qo'yilgan edi. Uning tarkibidagi oltinni ajratib olish imkoniyati yo'q edi.

Bugungi kunda ana shu minerallashgan uyumlar Amerikaning "N'yumont Moyning Korporeyshn" kompaniyasi ishtirokida eng yangi texnologiyalar jalb etilib, qayta ishlanmoqda. Ayni kunlarda Zarafshon shahrida marmar, aqiq, qimmatbaho rangdor toshlar-opal, firuza va boshqalardan badiiy buyumlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Zarafshon zamini gil zahiralarga nihoyatda boy. Shu sababli shaharda lak-bo'yoq mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxona bunyod etish ham rejalashtirilgan.

Navoiy viloyati Respublikada sanoat yuksak darajada rivojlangan hududlardan biridir. Navoiy shahrida Markaziy Osiyoda eng yirik sanoat korxonalari: Navoiy Kon-metallurgiya kombinati, "Navoiyazot" ishlab chiqarish birlashmasi, "Qizil-qumsement" hissadorlik jamiyati, "Navoiy elektrokimyozavod" hissadorlik jamiyati va boshqa korxonalar joylashgan. Bu korxonalar yiliga 560 ming tonnadan ziyod turli zaharli moddalarni atmosferaga chiqarib yuboradi va ular oqova suvlar orqali tuproqni ifloslantiradi.

Hozirgi vaqtda birgina kon-metallurgiya kombinatining chiqindilari 280 gektar yerni band qilib, havo, tuproq va yer osti suvlarini sianid, sul'fat kislota, ammiak, nitrat va boshqa chiqindilar bilan muntazam ifloslantirmoqda. Mazkur korxona yiliga 268 ming tonnadan ortiq zaharli chiqindilarni chiqaradi.

Sanoat korxonalari viloyatdagi mavjud suvning 20 foizidan kamrog'ini ishlatsa ham ular joylarda asosiy ifloslantiruvchi manbalarni vujudga keltiradi. Masalan "Navoiyazot" ishlab chiqarish birlashmasida faoliyat jarayoni uchun yiliga 32.917.500 m³ suv sarflanib, bu aholisi 50 ming kishidan iborat bo'lgan zamonaviy shaharni ta'minlash uchun etarli bo'lardi. Mazkur suvning asosiy qismi birlashmaning chiqindilari bilan ifloslanib, oqovasi Zarafshon daryosiga kelib tushadi.

Sanoat korxonalarining oqova suvlari tarkibida og'ir metallar kationlari miqdori ruxsat etilgan me'yordan 50 barobar, neft mahsulotlarining qoldiqlari 200 barobar ko'p bo'lgan holatlar kuzatilgan.

Navoiy viloyatida uran-ruda konlari mavjud bo'lib, ulardagi rudalar tarkibida uran miqdori talaygina u radioaktivligi va radon ajralishi bilan aholi salomatligi uchun o'ta xavfli holatlarni to'g'dirishi mumkin. Sanoatda ishlab chiqariladigan uranning radioaktiv chiqindilari va tog' jinslari uyumlari radioaktivlikning tabiiy manbalaridir. Viloyatdagi radioaktiv qoldiqlar saqlanadigan joy ham ekologik jihatdan "xavfli ifloslantirish o'chog'i" hisoblanadi. Bu yerdagi radioaktiv qoldiqlar shamol orqali kombinat chiqindilarining oxirgi qismi saqlanadigan Do'rmon, Azamat va Turkman qishloqlari hududlariga tushishi mumkin. Bu esa yerlik aholining hayot faoliyati uchun xavflidir.

“Navoiyelektrokimyo” hissadorlik jamiyatida tayyorlanadigan mineral o`g`itlar miqdori shahardagi boshqa sanoat korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmidan bir necha barobar kam bo`lgani uchun korxonaning atmosferaga chiqaradigan chiqindilari hajmi ham nisbatan oz, ammo bu chiqindilar tarkibida o`ta zaharli moddalar mavjud.

Navoiy shahri va uning atrofi atmosfera havosining ifloslanish darajasi umumiy ko`rsatkichlar bo`yicha xavfli hisoblanadi.

Uchquduq va Zarafshon shaharlarida atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy manbalar: kon-metallurgiya kombinatining sul`fat kislota ishlab chiqaruvchi bo`limlari, shahar avtotransporti, shaharni isituvchi bug` qozonlari, yoqilg`i chiqindilari va issiqlik elektr stansiyalardir. Ular havoni oltingugurt (IV)-oksid, isgazi va azot oksidlari bilan ifloslantiradi. Shuningdek, cho`l zonalarining o`ziga xos tabiati tufayli bu hududlarning havosi tarkibida chang zarrachalari miqdori har doim me`yoridan ancha ortiq bo`ladi. ($0,116 \text{ mg/m}^3$, 0,8 PDK).

Viloyat tumanlarining ayrim dahalarida chiqindi axlatlarni yig`ish va tashish tegishli darajada tashkil etilmaganligi natijasida ko`chalarda maishiy axlatlar to`planib qolib atrof muhitni va yaqin joylashgan suv manbalarini ifloslantiruvchi majmuaga aylanib bormoqda.

Viloyatning ekin maydonlari asosan Zarafshon daryosidan suv ichib, mazkur daryo ekologik jihatdan eng nochori hisoblanadi. Uning yuqori oqimi Tojikiston Respublikasi hududida joylashgan Anzob kon boyitish kombinati, o`rta oqimi Samarqand viloyatidagi Janubiy va Ingichka konlari quyi oqimi, Kattaqo`rg`on va

Navoiy shaharlari sanoat korxonalarining oqova suvlari bilan muntazam ifloslanmoqda.

Viloyatimizdagi kollektor-zovurlarda oqayotgan suvning deyarli hammasi oqar suv tarmoqlariga va suv havzalariga tushadi. Suvga tashlanadigan zaharli moddalar umumiy miqdori bo'yicha viloyatimiz oldingi o'rinlarda turadi. Zovurlardan chiqqan oqavalardan yer yuzasidagi suvlarning sho'rlanishi va ifloslanishi viloyatimizda eng jiddiy muammo bo'lib, ichimlik suv ta'minotini yaxshilash vazifalarini hal etishda katta qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Inson kasalliklarga chalinishining 90% iga ichimlik suvining sifatsizligi sabab bo'lishi nazardan chetda qoldirilmasa, Zarafshon daryosi suvining insonlarga qanchalik xavf-xatar solishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas.

Tuproqqa ortiqcha ishlov berish sho'rlanishiga va mineral o'g'itlar, og'ir metallar bilan ifloslanishiga, tarkibidagi chirindilarning kamayishiga, erroziyaning avj olishiga va boshqa salbiy oqibatlarga olib keladi. Viloyatimizda yerning ishdan chiqishiga asosan sug'orish va zovur tizimining eskirishi, sug'orish texnikasi va texnologiyasining qoloqligi va suvdan foydalanishda isrofgarchilikka yo'l qo'yilishi sabab bo'ladi, bu esa o'z navbatida yerning meliorativ holatining yomonlashuviga va tuproq tarkibida tuzning ko'payib ketishiga olib keladi. Hozirgi vaqtda viloyatimizning 45-55% maydonlarini sho'r bosgan. Viloyatning Karmana, Navoiy, Navbahor va Qiziltepa tumanlarida yer osti suvlari juda yaqin joylashgan. Bu hududlarda yer osti zax suvlarining ko'tarilish oqibatida ekin maydonlarining ekinlari va daraxtlarning qurib qolishi odatdagi holga aylanib bormoqda. Yer osti zax suvlarini tortib tashlashga mo'ljallab o'rnatilgan nasoslarning aksariyati ishga

yaroqsiz holga kelgan. O`zbekistonda mineral o`g`itlarning qo`llanishi eng yuqori normalardan ham o`nlab barobar ortiq bo`lgan. Shu sababli ular tuproqni, daryo, ko`l, yer osti va ichimlik suvlarini ifloslantirib kelgan. Viloyatimizda yer osti suvlarining muntazam ifloslanib borayotganligi kuzatilmoqda.

Keyingi 15-20 yilda yaylovlardan chorvachilikda maqsadga muvofiq foydalanilmaganligi tufayli, yaylovlar erroziyaga uchramoqda va boshqa antropogen ta`sirlar tufayli yaylovlar tamomila yaroqsiz holga kelmoqda.

Bir so`z bilan aytganda jahonda O`zbekistondan qazilma boyliklari bisyor biror-bir mamlakat bo`lmasa kerak.

2.2. “NAVOIYAZOT” HISSADORLIK JAMIYATINING UMUMIY TASNIFI.

«Navoiyazot» hissadorlik jamiyati qurilishi 1961 yilda boshlandi va kombinat 1964 yilda ishga tushirildi.

«Navoiyazot» hissadorlik jamiyati da tabiiy gaz, metan, havo va suvdan xom ashyo sifatida foydalanib, mineral o'g'itlardan ammiak selitrasi va sintetik tola nitron ishlab chiqariladi. Bugungi kunda «Navoiyazot» hissadorlik jamiyati mineral o'g'it ishlab chiqarish bo'yicha respublikada yetuk kimyoviy korxonalar safidan o'rin olgan, sintetik nitron tolasi ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi.

«Navoiyazot» hissadorlik jamiyati da ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ulushi, viloyatdagi barcha sanoat korxonalari ishlab chiqargan mahsulot hajmining 30 foizdan ko'prog'ini tashkil etadi. Hozirgi vaqtda bu korxonada o'n mingdan ortiq kishi ishlaydi va kombinatning bir kechayu kunduzda ishlab chiqargan mahsulotining tannarxi 50 million so'mdan ortiqdir.

Ma'lumki, sintetik tola nitron mebel va dag'al gazlamalar, qo'lda va mashinada to'qish uchun yigirilgan ip, paypoq va gilam mahsulotlari, ustki trikotaj mato, adyol, sintetik mo'yna va boshqa ko'pgina turdagi mahsulotlar tayyorlash uchun boshlang'ich xomashyo bo'lib xizmat qiladi.

Ayni paytda respublikada ishlab chiqariladigan 23 ming tonna nitron tolasining to'rtidan bir qismigina qayta ishlanadi, qolgan qismi esa yarim tayyor mahsulot sifatida eksport qilinadi. Viloyatda nitron tolasini ishlab chiqarish uchun xom ashyo zahiralari mavjud, respublikada va xorijiy mamlakatlarda unga bo'lgan

talab kattaligini inobatga olib, shuningdek, ishlab chiqarish samaradoriligini oshirish maqsadida kelajakda Navoiyazot ishlab chiqarish birlashmasini qayta qurish va kengaytirish mo'ljallangan.

«Navoiyazot» hissadorlik jamiyati turli tarmoqlarida ishlab chiqarishning normal holatda ketayotganligi, korxonada ishlatilayotgan sanoat jihozlarining muvofaqqiyatli ishlayotganligini, chiqarilayotgan chiqindi mahsulotlarining normadan ortiqcha emasligini o'rganish maqsadida viloyat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan bir qancha nazorat ishlari olib boriladi.

Korxonaning salmoqli manbalari yil mobaynida 10 marta tekshirilganda, quyidagi holatlar aniqlandi. №83 manbada azot oksidlarining miqdori 35-85,2 mg/m³ yoki 1,15-3,0 g/s gacha (PDV=4,47 g/s) ayrim hollarda belgilangan me'yorlardan 2,31 marta yuqori holatlar qayd etilgan. Uglerod oksidi miqdori qo'yidagilarni tashkil etadi. 35-212 mg/m³ yoki 1,15-4,19 g/s №67 manbada azot oksidlarining miqdori 210-435 mg/m³ yoki 9,49-19,6 g/s (PDV=g/c) ayrim hollarda belgilangan me'yordan 2-3 marta yuqori holatlar qayd etilgan. №23 sex 90 manbasida gaz tozalash qurilmalarining faoliyati tekshirildi va qo'yidagi natijalar olindi. Ammoniy changlarining miqdori 112,5 mg/m³ 0,175 g/s (PDV=0,186 u/c) ni tashkil etdi. Gaz tozalash uskunalari PDV loyihalarida ko'rsatilgan parametrlarga mos kelishi aniqlandi. (tozalash effekti 98,6%). «Navoiyazot» hissadorlik jamiyati ning №3 sex 72 manbasidan ammiakka namunalar olinib tahlil qilindi. Natijada ammiak miqdori 36,5 mg/m³ yoki 1,01 g/s ni tashkil etdi. PDV=3,33 g/s. Belgilangan me'yorlardan yuqori holatlar qayd etilmadi.

2004 yil mobaynida «Navoiyazot» hissadorlik jamiyati suv tozalash inshootlari yil davomida 11 marta tekshiruvdan o'tkazilib, tahlil natijalari qo'yidagicha bo'ldi. Namunalar oqava suvlarning BXO ga kirish va chiqish qismlarida amalga oshirildi.

Navoiyazot OAJ Sanitar kollektoriga tashlanadigan tashlanmalari doimiy nazorat qilib borildi. Yil mobaynida 12 marta namunalar olinib tahlil ishlari olib borildi. Natijada 1-tashlamada xlorid ionlari bo'yicha 1.3 marta, sul'fat ionlari bo'yicha 1.2 marta, shartli 3- tashlamada BXO dan keyin muallaq moddalar bo'yicha 1.22 marta belgilangan me'yordan yuqori holatlari qayd etildi.

Navoiyazot OAJ da umumiy quvvati soatiga 100 dona bo'lgan lyuminisent lampalarini demirkurizasiyalash qurilmasi ishga tushirildi va atrof-muhitni simob bilan ifloslanishiga barham berildi.

Navoiyazot ishlab chiqarish birlashmasi quyidagi azot kislotasi ishlab chiqarish 25- sexidagi katalitik reaktori tozalash uskunalarini ta'mirlash tadbirining bajarilishi natijasida atmosfera havosiga tashlanadigan azot oksidlari miqdori 10 tonnaga kamaydi. 5 sexdagi №9,7,12 katalitik reaktorlaridagi AVK- 10 katalizatorining aktivligini aniqlash va qayta reaktorlarga solinganligi natijasida atmosfera havosiga tashlanadigan azot oksidlari miqdori 14 tonnaga kamaydi. 14-sex sintez kolonnasini ta'mirlash va ximximoya korpusini almashtirilishi, ammiak- 1,2 navbatlarida SO-fraksiyasini yoqish uchun ishga tushirilgan yangi qozonxona ishga tushirilishi kabi tadbirlarning bajarilishi natijasida atmosferaga tashlanadigan zararli moddalar miqdori 460,506 tonnaga kamaygan.

Navoiyazot ishlab chiqarish birlashmasining 1- tashlamasi sanitar kollektoriga tashlanadigan tashlamada minerallanish belgilangan meyorlardan 1,2 marta, xlorid ionlari – 3,8 marta marta yuqorilik holatlari qayd etildi, nitrit ionlarining miqdori 0,01 mg/l ni, ammoniy ionlarining miqdori belgilangan meyorlardan yuqori emasligi qayd etildi .

Biologik suv tozalash inshooti o`rtanilgandan keyingi holatdagi 3-tashlamada sanitar kollektoriga tashlanadigan tozalangan oqavalar tarkibida ingredientlar belgilangan meyorlardan yuqori emasligi aniqlandi.

Navoiyazot ishlab chiqarish birlashmasi salmoqli № 67, 83 manbalaridan atmosfera havosiga tashlanadigan zaharli gazlar (azot oksidlari, uglerod oksidlari, ammiak) miqdoriga namunalar olindi. Natijada: № 67 manba (5-sex kuchsiz azot kislotasi ishlab chiqarish sexi 2-navbati) kollektoridan atmosfera havosiga tashlanadigan gazlar tarkibida azot oksidlarining miqdori 3,83- 27,88 g/s ni tashkil etdi. (PDV-12,10 g/s) belgilangan meyorlardan 2,3 marta yuqorilik holatlari qayd etildi.

№ 83 manba (25-sex kuchsiz azot) kislota ishlab chiqarish sexi 3-navbati) atmosfera havosiga tashlanadigan kollektoridan olingan gazlar tarkibida azot oksidlarining miqdori 2,60 g/s – 15,0 g/s (PDV-4,47 g/s). Belgilangan meyorlardan 3,35 marta yuqorilik holatlari qayd etildi. SO (uglerod oksidi)ning miqdori 0,92-28,9 g/s ni tashkil etdi. (PDV-92,0 g/s) belgilangan meyorlardan yuqori holatlar qayd etilmadi. №71 manbada ammiak miqdori 0,616 g/s ni, PDV – 3,3 g/s ni tashkil etgan. Belgilangan meyorlardan yuqori holatlar qayd etilmadi.

2.3. ISHNING BAJARILISH MAZMUNI VA METODIKASI

Navoiy viloyati tuproqlarida uchrovchi nematodalarning vertikal va gorizontal tarqalishini o`rganish maqsadida viloyat sanoat korxonalari atrofidagi tuproqdan namunalar yig`ib olindi. Buning uchun «Navoiyazot» hissadorlik jamiyati asos qilib olindi.

Tadqiqot uchun asos qilib olingan sanoat korxonasi atrofidan, to`rtala gorizont tomonlar bo`yicha 1000, 1500, 2000 va 2500 m uzoqliklardagi 0-20, 20-40 sm chuqurliklardan tuproq namunalari yig`ildi, korxona atrofidan jami 32 ta tuproq namunalari yig`ildi va ulardan laboratoriya sharoitida Berman usuli bo`yicha nematodalar tuproqdan ajratib olindi. Bunda voronkalarga qo`yilgan suv ustiga metal to`r qo`yilib, ikki qavatlik doka orqali tuproq namunalari solindi va mazkur holatdagi voronkalar bir sutka davomida saqlandi. Bunda tuproqning tarkibidagi nematodalarning suvda suzib, voronkaning tubiga joylashishi taxmin qilindi. Bir sutkadan so`ng esa 4 % li formalin solingan probirkalarga voronkalardan nematodali suv ajratib olindi. Har bir probirkaga tuproq namunasining qayerdan va qachon olinganligi haqida etiketka qo`yildi. Mazkur nematodalardan E.S.Kiryanova va E.L.Krall metodlari bo`yicha glitserin - jelatinda doimiy preparatlar tayyorlandi. Buning uchun nematodali suv oz – ozdan Petri likopchasiga qo`yilib, MBS binokulyari orqali nematodalar ajratib olindi. Ajratilgan nematodalar soat oynasiga toza suvga solindi va unga 96 % li glitserin – spirt aralashmasi qo`yilib, bir sutka davomida saqlanadi. Glitserin - spirtga solingan nematodalarning tanasi

yorqinlashib bimalol mikroskopda ko`rish imkoniyatiga ega bo`ladi. Shundan so`ng predmet oynalariga glitserin - jelatin tomizilib, unga nematodalar qo`yiladi, yopqich oynalar bilan berkitilib, doimiy preparatlar tayyorlanadi. Mikroskop orqali nematodalarining joylashgan o`rni aniqlanib, qora tush bilan xalqa ichiga olindi.

Tayyorlangan quruq preparatlar orqali nematodalarining taksonomik tarkibini o`rganish uchun O`zbekiston Milliy universiteti Biologiya tuproqshunoslik fakulteti "Umurtqali va umurtqasiz hayvonlar zoologiyasi" kafedrası "Tuproq zoologiyasi" ilmiy laboratoriyasiga jo`natildi. Laboratoriyada biologiya fanlari nomzodlari D.G`ulomova, Sh.Eshova, G.Abdurahmonova va E.P.Azizovalar rahbarligida tuproq nematodalarining tur tarkibi aniqlandi. Men imkoniyatdan foydalanib, magistrlik dissertatsiyasini bajarishga yordam bergan, yuqorida nomlari qayd etilgan ustozlarimga o`z minnadorchiligimni bildiraman.

Yig`ilgan tuproq namunalari laboratoriya sharoitida tahlil qilinganda 2 ta kenja sinf, 3 otryad, 12 oila, 4 kichik oila, 27 turkum va 57 turga mansub nematodalar uchradi.

Navoiyazot ishlab chiqarish sanoat korxonasi atrofidan olingan tuproq namunalari tekshirilganda turli gorizont tomonlar bo`yicha nematodalar sonining turlicha o`zgarishi aniqlandi. Nematodalar sonining turlicha bo`lishi sanoat korxonasidan chiqarilayotgan chiqindilarning shamol orqali turli yo`nalishlar bo`yicha gorizont tomoniga tushishidir. Sanoat chiqindisi tushgan tuproqning unumdorligi pasayib, gumus qavati yemiriladi. Tuproqning yuza qatlamida yashovchi nematodalar soni kamayadi, sanoat chiqindisi ularning hayot faoliyatini pasaytirib, tuproqning bir qatlamidan ikkinchi qatlamini migratsiya qiladi.

2.4. “NAVOIYAZOT” HISSADORLIK JAMIYATI ATROFI TUPROQ NEMATODALARINING VERTIKAL VA GORIZONTAL TARQALISHI.

“Navoiyazot” hissadorlik jamiyati atrofi tuproq nematodalarining vertikal va gorizont tarqalishini o`rganish maqsadida korxona atrofidan turli gorizont tomonlar va 0-20, 20-40 smli chuqurliklar bo`yicha tuproq namunalari yig`ilib, ularda topilgan nematodalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

“Navoiyazot” ishlab chiqarish birlashmasi atrofidan 1000 m uzoqlikdagi nematodalarining tarqalishi haqida

MA'LUMOT

t/r	Nematodalarining tur tarkibi	Shimol		Janub		Sharq		G`arb	
		0-20	20-40	0-20	20-40	0-20	20-40	0-20	20-40
1.	Amplimerlinius dubius			1					
2.	Aglenchus agricola				1				
3	Eudorylaimus parvus		1						1
4	Eudorylaimus sulphasae						1		
5	Eudorylaimus skrjabini		1						1
6	Disocolaimus alborossicus								
7	Disocolaimus discocephalus					1			
8	Disocolaimus gossypiorum	1							

9	Disocolaimus major					1			1
10	Discolaimum bulbiferus						1		
11	Disocolaimus smithi				1				
12	Eudorylaimus ettersbergensi	1							1
13	Eudorylaimus incisus	1						1	
14	Eudorylaimus labiatus								
15	Eudorylaimus leucartu								1
16	Eudorylaimus monohystera					1			
17	Eudorylaimus modicus				1				
18	Eudorylaimus paraobtusica								
19	Eudorylaimus pratensis								
20	Eudorylaimus parvus				1			1	
21	Eudorylaimus skjabini						1		
22	Eudorylaimus sulphasae		1						
23	Nygolaimus brachyuris					1			
24	Dorylaimellus mirus		1						
25	Diphtherophora communis								
26	Opailaimus mirus								
27	Rhabditis brevispina	1	1						
28	Rhabditis intermedia				1				
29	Mesorhabditis irregularis					1			1
30	Mesorhabditis monohystera				1				

31	Diploscapter rhizophilus								
32	Mesodiplogaster Iheritieri	1							
33	Cephalobus cornis	1							1
34	Cehalobus nanus				1				
35	Cepalobus parvus			1					
36	Cephalobus persegis					1			
37	Cephalobus termophilus								1
38	Eucephalobus elongates								
39	Eucephalobus filiformis								
40	Eucephalobus laevis		1						
41	Eucephalobus striatus				1			1	1
42	Acrobeles innoxius	1							
43	Acrobeloides kakalpakensis								
44	Acrobeloides obliquus								
45	Acrobeloides tricornis								
46	Cervidellus habibullae			1					
47	Chiloplacus bibigulae		1						
48	Chiloplacus lentus								
49	Zeldia setosa								
50	Panagrolaimus obesus								
51	Macroolalaimus cruces								
52	Panagrodontus armatus								

53	Aphelenchus cyliricaudatus				1				47
----	----------------------------	--	--	--	---	--	--	--	----

**“Navoiyazot” ishlab chiqarish birlashmasi atrofidan 1500 m uzoqlikdagi
nematodalarning tarqalishi haqida**

MA’LUMOT

t/r	Nematodalarning tur tarkibi	Shimol		Janub		Sharq		G`arb	
		0-20	20-40	0-20	20-40	0-20	20-40	0-20	20-40
1	Pratylenchus pratensis			1					
2	Filenchus filiformis		1						
3	Eudorylaimus parvus		1						1
4	Eudorylaimus sulphasae						1		
5	Eudorylaimus skrjabini								1
6	Disocolaimus alborossicus								
7	Disocolaimus discocephalus					1			
8	Disocolaimus gossypiorum	1							
9	Disocolaimus major					1			1
10	Discolaimuim bulbiferus						1		
11	Disocolaimus smithi				1				
12	Eudorylaimus ettersbergensi	1							1
13	Eudorylaimus incisus	1							
14	Eudorylaimus labiatus								

15	Eudorylaimus leucartu								1
16	Eudorylaimus monohystera					1			
17	Eudorylaimus modicus				1				
18	Eudorylaimus paraobtusicaudatus								
19	Eudorylaimus pratensis								
20	Eudorylaimus parvus				1			1	
21	Eudorylaimus skjabini						1		
22	Eudorylaimus sulphasae		1						
23	Nygolaimus brachyuris					1			
24	Dorylaimellus mirus		1						
25	Diphtherophora communis								
26	Opailaimus mirus								
27	Rhabditis brevispina	1	1						
28	Rhabditis intermedia				1				
29	Mesorhabditis irregularis								1
30	Mesorhabditis monohystera				1				
31	Diploscapter rhizophilus								
32	Mesodiplogaster Iheritieri	1							
33	Cephalobus cornis	1							1
34	Cehalobus nanus				1				
35	Cepalobus parvus			1					

36	Cephalobus persegnis					1			
37	Cephalobus termophilus								1
38	Acrobeloides bütschlii								
39	Eucephalobus elongates								
40	Eucephalobus filiformis								
41	Eucephalobus laevis		1						
42	Eucephalobus striatus				1				1
43	Acrobeles innoxius	1							
44	Acrobeloides kakalpakensis								
45	Acrobeloides obliquus								
46	Acrobeloides tricornis								
47	Cervidellus habibullae			1					
48	Chiloplacus bibigulae		1						
49	Chiloplacus lentus								
50	Zeldia setosa								
51	Panagrolaimus obesus								
52	Macroolalaimus cruces								
53	Panagrodontus armatus								
54	Aphelenchus cylicaudatus				1				43

**“Navoiyazot” ishlab chiqarish birlashmasi atrofidan 2000 m uzoqlikdagi
nematodalarining tarqalishi haqida**

MA’LUMOT

t/r	Nematodalarining tur tarkibi	Shimol		Janub		Sharq		G`arb	
		0-20	20-40	0-20	20-40	0-20	20-40	0-20	20-40
1	Tylenchus davainei	1							
2	Aglenchus agricola								
3	Eudorylaimus parvus		1						1
4	Eudorylaimus sulphasae						1		
5	Eudorylaimus skrjabini		1						1
6	Disocolaimus alborossicus								
7	Disocolaimus discocephalus					1			
8	Disocolaimus gossypiorum	1							
9	Disocolaimus major					1			1
10	Discolaimuim bulbiferus						1		
11	Disocolaimus smithi				1				
12	Eudorylaimus ettersbergensi	1							1
13	Eudorylaimus incisus	1						1	
14	Eudorylaimus labiatus								
15	Eudorylaimus leucartu								1
16	Eudorylaimus monohystera					1			

17	Eudorylaimus modicus				1				
18	Eudorylaimus paraobtusica								
19	Eudorylaimus pratensis								
20	Eudorylaimus parvus				1			1	
21	Eudorylaimus skjabini						1		
22	Eudorylaimus sulphasae		1						
23	Nygolaimus brachyuris					1			
24	Dorylaimellus mirus		1					1	
25	Diphtherophora communis								
26	Opailaimus mirus								
27	Rhabditis brevispina	1	1						
28	Rhabditis intermedia				1		1		
29	Mesorhabditis irregularis					1			1
30	Mesorhabditis monohystera				1				
31	Diploscapter rhizophilus								
32	Mesodiplogaster Iheritieri	1							
33	Cephalobus cornis	1							1
34	Cephalobus nanus				1				
35	Cephalobus parvus			1					
36	Cephalobus persegnis					1			
37	Cephalobus termophilus								1
38	Eucephalobus elongates								

39	Eucephalobus filiformis								
40	Eucephalobus laevis		1						
41	Eucephalobus striatus				1			1	1
42	Acrobeles innoxius	1							
43	Acrobeloides kakalpakensis								
44	Acrobeloides obliquus								
45	Acrobeloides tricornis								
46	Cervidellus habibullae			1					
47	Chiloplacus bibigulae		1						
48	Chiloplacus lentus								
49	Zeldia setosa								
50	Panagrolaimus obesus								
51	Macroolalaimus cruces								
52	Panagrodontus armatus								
53	Aphelenchus cylicaudatus				1				48

**“Navoiyazot” ishlab chiqarish birlashmasi atrofidan 2500 m uzoqlikdagi
nematodalarning tarqalishi haqida**

MA'LUMOT

t/r	Nematodalarning tur tarkibi	Shimol		Janub		Sharq		G`arb	
		0-20	20-40	0-20	20-40	0-20	20-40	0-20	20-40
1	Eudorylaimus parvus		1						1
2	Eudorylaimus sulphasae						1		
3	Eudorylaimus skrjabini		1						1
4	Disocolaimus alborossicus								
5	Disocolaimus discocephalus					1			
6	Disocolaimus gossypiorum	1							
7	Disocolaimus major					1			1
8	Discolaimuim bulbiferus								
9	Disocolaimus smithi				1				
10	Eudorylaimus ettersbergensi	1							1
11	Eudorylaimus incisus	1						1	
12	Eudorylaimus labiatus								
13	Eudorylaimus leucartu								1
14	Eudorylaimus monohystera					1			
15	Eudorylaimus modicus								
16	Eudorylaimus paraobtusica								

17	Eudorylaimus pratensis								
18	Eudorylaimus parvus				1			1	
19	Eudorylaimus skjabini						1		
20	Eudorylaimus sulphasae		1						
21	Nygolaimus brachyuris					1			
22	Dorylaimellus mirus		1						
23	Diphtherophora communis								
24	Opailaimus mirus								
25	Rhabditis brevispina	1	1						
26	Rhabditis intermedia				1				
27	Mesorhabditis irregularis					1			1
28	Mesorhabditis monohystera				1				
29	Diploscapter rhizophilus								
30	Mesodiplogaster Iheritieri	1							
31	Cephalobus cornis	1							1
32	Cephalobus nanus				1				
33	Cephalobus parvus			1					
34	Cephalobus persegnis					1			
35	Cephalobus termophilus								1
36	Eucephalobus elongates								
37	Eucephalobus filiformis								
38	Eucephalobus laevis		1						

39	<i>Eucephalobus striatus</i>				1			1	1
40	<i>Acrobeles innoxius</i>	1							
41	<i>Acrobeloides kakalpakensis</i>								
42	<i>Acrobeloides obliquus</i>								
43	<i>Acrobeloides tricornis</i>								
44	<i>Cervidellus habibullae</i>			1					
45	<i>Chiloplacus bibigulae</i>		1						
46	<i>Chiloplacus lentus</i>								
47	<i>Zeldia setosa</i>								
48	<i>Panagrolaimus obesus</i>								
49	<i>Macroolalaimus cruces</i>								
50	<i>Panagrodontus armatus</i>								
51	<i>Aphelenchus cyliricaudatus</i>				1				43

III. BOB.

3.1. “NAVOIYAZOT” HISSADORLIK JAMIYATI ATROFIDAN TOPILGAN TUPROQ NEMATODALARINING TUR TARKIBI BO`YICHA TAKSONOMIK O`RNI.

“Navoiyazot” zavodi atrofidagi tuproq namunalari tekshirib ko`rilganda 57 turga mansub bo`lgan nematodalar borligi aniqlandi. J.B.Goodey (1963), E.Kiryanova, E.Krall (1969-1971), M.H.Siddiqi (1971-1968), I. Andrassy (1976) va boshqa olimlarning sistematikasi bo`yicha nematodalarning taksonomik o`rni aniqlandi. Barcha topilgan tuproq nematodalari ikkita kenja sinfga (Adenophorea, Secernentea.), uchta otryadga (Dorylaimida, Rhabditida, Tylencheda) mansubligi aniqlandi. Dorylaimida otryadiga mansub 2 ta oila vakillari, Rhabditida otryadiga mansub 4 ta oila vakillari, Tylencheda otryadiga mansub 1 ta oila vakillari uchradi.

NEMATHELMINHES tipi SCHNEIDER, 1966

Sinf NEMATODA Rudolphi, 1808

Kenja sinf Adenophorea (v. Linstow, 1905)

Chitwood. 1958; Syn. Aphasmida Chitwood et

Chitwood, 1933

OTRYAD DORYLAIMIDA (de Man, 1876) Pearce, 1942

Kichik otryad **Dorylaimada** (Chitwood, 1933) Pearce, 1936

OILA DORYLAIMIDAE de Man, 1876

Turkum Eydorylaimus Andrassy, 1959

1. Tur. Eudorylaimus parvus (de Man, 1880) Andrassy, 1959

2. Tur. Eudorylaimus sulphasae (Tulaganov, 1949) Andrassy, 1959

